

Mahalla bilan hamkorlikda

“Gidorelioratsiya” fakultetiga birlashtirilgan “Lashkarbegi” MFY bilan hamkorlikda tasdiqlangan reja asosida 2021-yil 16-iyun kuni mahalla yoshlari hamda fakultet talabalari o'rtasida futbol bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Ushbu musobaqaga fakultetning “Gidrologiya va gidrogeologiya” kafedrasini mas'ul bo'lib, kafedra mudiri D.Nazaraliev hamda kafedra professor - o'qituvchilari; I.Ro'ziev, S.Nurjanov, S.Mansurov, J.Hamraqulov, Q.Eshquvatov, G.Jumabaeva va N.Jo'raeva hamda futbol o'ynashga ishtiyoqi bor faol talabalar hamda ushbu kafedra professor - o'qituvchilari hamda mahalla yoshlaridan iborat jami 5 ta futbol jamoasi musobaqada qatnashdi. Murosasiz bo'lib o'tgan ushbu sport tadbirida fakultetimiz jamoasi 2-o'ringa loyiq deb topildi hamda diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



Tabdirlarni taqdirlash marosimini “Lashkarbegi” Mahalla fuqarolar yig'ini raisi N.Karimova, “Gidrologiya va gidrogeologiya” kafedrasini mudiri dotsent D.Nazaraliev, Lashkarbegi mahalla, Oila, xotin qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalari bo'yicha rais o'rinbosari Z.Rasuliy, “Gidromeliioratsiya” fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Z.Abdurashidovlar ishtirokida taqdirlandilar.



Bu kabi tadbirlar mahalla yoshlarini bo'sh vaqtlarini unumli va samarali o'tkazish bilan birga institut professor-o'qituvchilari hamda talabalari bilan do'stona aloqalarini o'rnatishga zamin yaratadi. Oliy ta'lim muassasalarini mahallabay tizimida ishlash eng to'g'ri va samarali usul ekanligini yana bir bor isbotladi. Muhtaram Yurtboshimiz olib borayotgan siyosatlari biz yoshlarga kelajakda o'z samarasi berishlariga ishonamiz.



GM fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Z. Abdurashidov axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati